

THE IMAGE OF STEPMOTHER IN ENGLISH AND UZBEK WORKS

Iroda NIZOMOVA

Teacher

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

INGLIZ VA O'ZBEK ASARLARIDA O'GAY ONA TIMSOLI

Iroda NIZOMOVA

O'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ОБРАЗ МАЧЕХИ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ

Ирода НИЗОМОВА

Преподаватель

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан iroda080392@mail.ru

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Nizomova I. Ingliz va o'zbek asarlarida o'gay ona timsoli// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 4. — B. 189-203.

<https://doi.org/10.36078/1730185152>

Received: June 5, 2024

Accepted: August 17, 2024

Published: August 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. The article analyzes the development of the image of the stepmother in the historical and literary context, the reception and evolution of this image in Uzbek and English literature; the educational and social meanings the image of the stepmother conveys to students, its spiritual characteristics and place in society; the social problems writers addressed through this image, and what solutions they offered; psychological features of the stepmother image, her inner world, personal drama, and spiritual experiences.

In English and Uzbek prose, the family values, social relations, and educational approaches of both nations are expressed through the artistic depiction of the image of the stepmother. The research results introduce new aspects to literary studies and expand students' understanding of this topic.

Keywords: mother; stepmother; Uzbek and English prose; symbols; image; positive and negative character; character; mental image

Annotatsiya. Maqolada haqiqiy o'zbek ayolining siymosi va ingliz adabiyotida tasvirlanadigan ona timsoli haqida olib borilgan izlanishlar natijasi aks etgan. Shuningdek, maqolada o'gay ona obrazining tarixiy va adabiy kontekstdagi rivojlanishi, o'zbek va ingliz adabiyotida ushbu obrazning qabul qilinishi va evolyutsiyasi tahlil qilingan; o'gay ona obrazining kitobxonga qanday tarbiyaviy va ijtimoiy ma'nolarni yetkazishi, uning ma'naviy xususiyatlari va jamiyatdagi o'rni ochib berilgan; bu obraz orqali adiblar qanday ijtimoiy muammolarni ko'tarishi va ularni qanday yechimlarga yo'naltirishi tahlil qilingan hamda o'gay ona obrazining psixologik xususiyatlari, uning ichki dunyosi, shaxsiy dramasi va ruhiy kechinmalari ko'rib chiqilgan. Ingliz va o'zbek nasrida o'gay ona obrazining badiiy tasviri orqali har ikki millatning oilaviy qadriyatlarini, ijtimoiy munosabatlari va tarbiyaviy yondashuvlari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari adabiyotshunoslikka yangi

qirralarni kiritib, o'quvchilarning ushbu mavzuga nisbatan tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ona; o'gay ona; o'zbek va ingliz nasri; timsollar; obraz; ijobiy va salbiy xarakter; personaj; psixik obraz.

Аннотация. В статье проведено исследование образа узбекской женщины и образа матери, изображенного в английской литературе. Также в статье анализируются развитие образа мачехи в историко-литературном контексте, рецепция и эволюция этого образа в узбекской и английской литературе; какое воспитательное и социальное значение передает учащимся образ мачехи, раскрываются ее духовные особенности и место в обществе. Через этот образ анализируется, какие социальные проблемы поднимают писатели и на какие решения они направляют; рассматриваются психологические особенности образа мачехи, ее внутренний мир, личная драма и душевные переживания. В английской и узбекской прозе семейные ценности, общественные отношения и образовательные подходы обоих народов выражаются через художественное изображение образа мачехи. Результаты исследования приносят новые аспекты в литературоведение и служат расширению представлений учащихся по данной теме.

Ключевые слова: мать; мачеха; узбекская и английская проза; символы; образ; положительный и отрицательный персонаж; персонаж; ментальный образ.

Kirish

Badiiy so'z vositasida muallif inson ongi, qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg'ashga, ularni so'z vositasida aks ettirishga intiladi. Eng yuqori pog'onalarga yetaklaydigan badiiy adabiyot namunalari insoniyatni to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan o'y-fikrlar, kechinmalar, orzu-umidlarni ifodalaydi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o'xshamaganlaridek, ularning qalb tug'yonlari ham betakroridir. O'zining uzoq tarixiga ega bo'lgan o'zbek adabiyoti insonning qalb tug'yonlarini mahorat bilan aks ettirgan durdonalarga boy. Ular nafaqat hozirgi avlod ruhiyatiga ta'sir etibgina qolmay, balki qalbida ham hayajon uyg'ota oladi va ularning ma'naviy yetukligiga ham tegishli hissa qo'sha oladi. Muhim jihati shundaki, ular yoshlarimizni faqat ma'rifiy tarafdin boyitish bilan cheklanmay, badiiy didimiz takomiliga hamda ma'naviy tarafdin yuksalishimizga ham xizmat qiladi.

Iste'dodli yozuvchi Oybek adabiyotga shunday ta'rif bergan: "Adabiyot — fikr ommasi, qalb hislari bilan doimo sayqallanadigan, to'xtashni bilmaydigan, borgan sari hamisha nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan bir soha... Adabiyot turmushni aks ettiradi, turmushdagi voqealar, hodisalar, fikr va tuyg'ularni umumiyashtirib, obrazlar bilan turmushni, dunyoni anglashga tirishadi..."

... Adabiyotimizning tasvir obyekti — xalqimiz turmushi. U o'z taraqqiyotida xalq hayotini, kurashini, orzu-armonlarini, his-tuyg'ularini, fikr-xayollarini yangi jamiyat qurish yo'lidagi faoliyatini badiiy aks ettirib rivojlantiradi, benihoya yutuqlarni qo'lga kiritdi..."

Ingliz va o'zbek nasri haqida so'z yuritir ekanmiz, shu o'rinda bir savol tug'iladi, "Nasr bu nima?" Demak, "Nasr" arab tilidan olingan bo'lib

“ko‘mak, zafar” kabi ma‘nolarni ifodalab, proza — adabiy tur; vazn va qofiya singari she‘riyatga xos belgilarga ega bo‘lmagan yozma nutq mahsulidir (10, 84).

Jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ayollar ekanligini hamda kelajak onalar tarbiyasi bilan komil farzand bo‘lib ulg‘ayotgan yoshlar qo‘lida ekanligini inobatga olgan holda, bu borada ayollar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Zero, xalqimiz orasida bir naql bor: “Ayol dunyoni tebratar”. Vaholanki ayol haqida so‘z yuritar ekanmiz, ko‘z oldimizda, albatta, birinchi mehribon ona” timsoli gavdalanadi. O‘zbek va ingliz adabiyotida badiiy tasvirni oshirish, ayol timsolini yaratishda har bir detalga e‘tibor qaratish hamda yozuvchilarda badiiy istedodini rivojlantirishdan iborat vazifalar ko‘zlangan.

Maqolaning maqsadidan kelib chiqib, ishda tahliliy, tarixiy-tipologik, psixoanalitik usullardan foydalanilgan. Ona timsoli, ya‘ni o‘gay ona timsolini yaratishda avval xuddi shu janrda yozilgan o‘gay ona personaji yaratilgan asarlarni ko‘rib tahlil qilib chiqish kerak. Adabiyotda badiiy tasvir — obrazlilik orqali ifoda etiladi. Obrazlilik badiiy adabiyotning barcha janrlari uchun xosdir. Ma‘lumki, asardagi har bir shaxs, hodisa, narsa yozuvchi tomonidan ko‘z o‘ngimizda jonli tarzda obrazlanadi. Biz ularning so‘z orqali ifodalangan suratini ko‘ra olamiz. Faqat asardagi bu suratlar harakatsiz holatda emas, balki muttasil harakatda, asar qahramonlari esa birlari bilan qarama-qarshilik va ziddiyatlarda yoki juda ahil holatda aks ettiriladi. Bunda yozuvchi ba‘zan qahramonlar tilidan, ba‘zan esa o‘z tilidan yashab turgan davrini kishilarining o‘y-fikrlarini va orzu-istaklarini tasvirlaydi. Mashhur K. Imomov (8, 58), T. Mirzayev, O. Safarov (18, 87), B. Sarimsoqov kabi tadqiqotchilar ona timsoliga alohida urg‘u beradi. Boshqacha aytganda, ona o‘z bolasi ongida dunyo tasvirining asosini yaratadi, bu o‘z xalqiga va millatiga xosdir. Shuning uchun bola dunyoni onasining nigohi orqali ko‘radi. Bolada hayotga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishga hissa qo‘shadigan, uni jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashadigan inson ham bu onadir.

Asosiy qism

O‘gay ona obrazini yaratishda asosan ona va o‘gay farzandlar o‘rtasidagi munosabatdan, o‘gay onaning jamiyat qatlamlarida qanday tan olinishi, unga atrofida gilarining munosabati va uning jamiyatda, oilada o‘rnini tahlil qilgan holda, nasrda qanday tasvirlanishiga baho berish mumkin. O‘gay ona haqida so‘z yuritar ekanmiz, dastlab, albatta, ona obrazining adabiyotlarda qanday aks ettirilishini ko‘rib chiqish lozim. Har bir milliy adabiyotda ona obrazi o‘sha xalqning tabiatiga, zamon ruhiga mos tarzda aks etadi, idrok qilinadi. Binobarin, bir xil sharoitda harakat qiladigan personajlar har bir adabiyotda o‘z milliy ruhiyatiga mos ravishda turlicha gavdalanadi (9, 79).

Ingliz va o‘zbek xalq folklori va asarlari orasida o‘xshash mavzularni ko‘plab uchratish mumkin. Bu jihatdan asarlardagi o‘xshash mavzular sayyor syujetlar qatoriga kiritiladi. Bu syujetlardagi o‘xshashlik, milliy jihatlardagi moslik adabiy aloqalar sohasida o‘rganilishi kerak bo‘lgan

muhim masalalardan biridir. Chunki har bir millat va elat vakili o'z tarixida boshqa millat vakili tarixi namunalarini uchratishi mumkin.

O'gay ona mavzusi ostidagi hikoya va asarlar doim kitobxonlarni mungli va achinarli motivlari bilan o'ziga jalb etib keladi. O'gay ona ishtirokidagi hikoya va asarlarning obraz va motivlar tizimi real haqiqat, hayotiy voqealar, o'gaylik an'analari va yetimlik bilan bog'liq qadimiy tushunchalar atrofida yuzaga kelib ta'limiy-estetik funksiyalarni ado etadilar (4, 10).

O'gay farzandlar bilan o'gay ona obrazlarini bir-biriga begona deb zid qo'yish va ajratish muayyan zamon mahsuli, aniqrog'i o'zaro ziddiyat, turmush qarama-qarshiliklari, jamiyatning ibtidoiy bosqichiga oid shart-sharoitlarning mafkuraviy qarashlari zahirida vujudga kelgan.

O'gay ona nomini ilk marta eshitganda inson ko'z o'ngiga yetim farzandlarga mehr berish o'rniga o'gaylik qiladigan ona timsoli gavdalanadi. To'g'ri, hech bir inson o'z onasidek mehr-muhabbat berib, o'rnini bosolmaydi. Ammo shunday onalar ham borki, o'zi dunyoga keltirmagan farzandni chin mehr bilan tarbiya qilib, kamolga yetkazadi. Buni hozirgi o'zbek hikoyachiligining iste'dodli vakili Normurod Norqobilov ijodiga mansub "Yangi ertak" hikoyasi orqali hamda Hasan Manzurning "O'ga ona" nomli hikoyasi va bugungi kunda ko'plab kitobxonlarning sevimli asari bo'lmish turk yozuvchisi Axmad Lutfi Qozonchi qalamiga mansub "O'gay ona" asari orqali xalqimiz orasida haqiqiy, o'z tug'gan onasidan-da ziyoda mehr bera oladigan, o'z farzandidek bag'riga olgan va hikoya davomida o'gay farzandlar ham o'z onasidek qabul qilgan holatlarni ko'rish mumkin. Shu o'rinda Axmad Lutfi Qozonchi qalamiga mansub "O'gay ona" asarida keltirilgan quyidagi jumlar kitobxonning qalbiga kirib boradi: "Ona tuqqan bolasiga jabr ko'rsatishi tabiiy, ammo o'gay bolasiga jabr ko'rsatishi johillikdir" (1, 37).

Ingliz adabiyotida esa Anne Renasinghening "The Stepmother" va "Pencil art story"ga mansub bo'lgan "Kind stepmother" hikoyalari ham o'ziga xosligi (2, 205), mavzu xilma-xilligi, qahramonning ichki kechinmalari va ruhiyati, shuningdek, asosiysi o'gay ona obrazining ijobiy ma'noda naqadar sabrli ona sifatida yoritilganligi bilan ajralib turadi. Asosan o'zbek va ingliz ertaklari va asarlarida o'gay ona salbiy obrazda: yovuz, qo'pol, badjahl, ayyor, yolg'onchi va zulmkor xarakterlari bilan tasvirlanadi, shu o'rinda o'zbek folklorida "Zumrad va Qimmat", "Podachining qizi", "Oppog'oy" va ingliz ertaklaridan esa "Cindrella", "Snow white", "The rose-tree" va "The son and wicked stepmother" ertaklarini misol keltirish mumkin. Tadqiqot jarayonida guvoh bo'ldikki, o'zbek va ingliz ertaklarida o'gay ona obrazi ijobiy xarakterda kuzatilmadi, ammo o'zbek va ingliz hikoyalari va asarlarida, ommaviy axborot vositalaridagi hayotiy hikoyalarda "O'gay ona" ijobiy obrazda ifodalangan.

Bugungi kunda ko'zga ko'ringan o'zbek nasrining yorqin vakillaridan biri Normurod Norqobilov ijodiga mansub "Yangi ertak" hikoyasida o'gay ona obrazi quyidagicha yoritiladi (11, 12)

Hikoya qahramoni Oydin ismli qizaloq bo'lib, Oydin o'gay onasi — Sadoqatning tug'ilgan kuniga u uchun ertak yozib sovg'a qilish harakatida... U ertakni tug'ilgan kungacha tugatishi lozim, ammo tug'ilgan kun yaqin, shu sababli kechalari uxlayotgan opasiga havasi kelib uxlagisi kelsa-da, u o'gay onasiga bo'lgan mehri sababli mana bir necha kundirki, u

shu ish bilan band. O'gay onasi uchun buncha sa'y-harakat...? O'gay ona deyilganda odatda ongimizda yovuz, qo'pol, badjahl, ayyor, yolg'onchi va zulmkor, ya'ni barcha yomon xislatlarni o'zida mujassam etgan ona obrazi jonlanadi. Donald Haase tomonidan yaratilgan "English Fairy Tales" and "More English Fairy Tales" asarlarida ham hattoki ona siyomosiga timsol berilgan. Ammo Sadoqat bunday onalardan farqali ravishda, Oydinga o'z onasidek mehr-muhabbat berib, ona o'z qiziga beraoladigan barcha narsalarni berdi, uni o'ksik qalbiga quloq tutdi va uning mehriga sazovor bo'ldi (7, 100). Qahramonimizning hissiyotlari quyidagi muallif nutqida yaqqol namoyon bo'ladi.

"... oxirida, xona o'rtasiga solingan qo'sh o'rinning birida bahuzur uyquni urayotgan o'gay opasi — Xadichaga havaslanib boqadi va ich-ichidan, qo'lidagi ruchkasini nimqorong'i kunjakka uloqtirib, opasi qatorida ko'rpa tagiga sho'ng'ish istagini tuyadi. Biroq qanday bo'lmasin ertagini tezroq yakunlashi lozimligi tag'in esiga tushib, bu fikridan qaytadi. Axir o'gay onasi — Sadoqatning tug'ilgan kuni juda yaqin qolgan, agar ertagini tezroq tugallamasa, boldan totli, shakardan shirin orzusi — bayram dasturxonida hammadan bekitiqcha yozgan ertagini o'qib, uydagilarni, asosan, o'gay onasini quvontirish niyati butunlay puchga chiqadi-da" (11, 17). Ha Oydin hali yosh, beg'ubor qizaloq, U zimdan qovoqlariga to'r tashlay boshlagan uyquni quvlab, stol chetida yotgan qalin kitobni qayta qo'liga oladi, o'zicha tag'in ertaklarning yozilish sir-asrorlarini o'rganmoqchi bo'ladi

Nasriy asarlarda qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiyatini qay darajada kitobxon ongida jonlantirish muallifning so'z san'atidan mahorat bilan foydalanishiga bog'liq.

Qizcha o'ychan nigohini oldidagi daftar sahifasidan uzib, avvaliga, xuddi najot qidirganday, marhuma onasining devordagi suratiga tikiladi. Bir muddatdan so'ng chuqur xo'rsinib, tevarakka ma'yus ko'z yugurtiradi

Yuqoridagi jummalardan anglashimiz mumkinki, har qancha mehr bersa-da, hech bir inson onasining o'rnini bosaolmaydi. Ushbu muallif nutqida ham qahramonimiz devordagi suratga tikilib, o'z onasini qo'msab, sog'inganini ko'ramiz. Albatta, har bir farzand uchun hayotda ota-onaning o'rne beqiyosdir. Shuningdek, badiiy adabiyot kitobxonda fikrlash qobiliyatini ham shakllantiradi.

Shu o'yda kitobni hushsizlik bilan bir-bir varaqlarkan, ko'zi bot "Zumrad va Qimmat" ertagiga tushgach, qoshlari norozi chimirilib, uni shartta yopadi-da, zarda ila nari surib qo'yadi. Qahramonimiz Oydingning ham "o'gay ona" haqida fikrlari ham aynan o'zi tinglagan sevimli ertagi Zumrad va Qimmat orqali juda qo'rqinchli edi. Negaki, xalqimiz ongida o'gay onalar salbiy xarakterga ega. Shuning uchun ham boshida Oydin yangi oyisini yoqtirmaydi.

...Qizcha Zumrad va Qimmat ertagi tufayli chekkan ruhiy iztiroblari — Zumradning taqdiri endi o'z boshiga tushajagini o'ylab, qo'rquv va tahluka og'ushida kechgan kunlari va tunlarini hali unutmagandi. Esida, o'shanda o'gay onasining hovliga kirib kelish onlarini dahshat bilan kutgan. Darvoza ortida mashina ovozi tinib, eshiklarning taraq-turuq qilib ochilib-yopilishi qulog'iga chalinishi bilan yelday uchib borib, somonxonaga bekingan, qo'rquvdan yaproqday titrab, eshik tirqishidan darvozaga ko'z tikkan. Ana hozir o'gay onasi aynan Qimmatga o'xshash labi do'rdoq,

sochlari patila, haddan ziyod injiq va o'jar qizini boshlab darvozadan kirib keladi, shunchaki emas, og'zidan o't purkab kirib keladi. Va hovliga qadam qo'yishi hamonoq tevarakka alang-jalang qaranib, o'gay qiz — Oydinni qidirishga tushadi, so'ng uni bo'g'zigacha yumushga ko'mib tashlaydi. Mabodo bo'yin tovlar bo'lsa, uradi, so'kadi va oqibat, kunlardan birida, "o'rmonga adashtirib kel buni", deya otasining qo'liga tutqazadi. Otasi o'gay onaga lom-mim demoqqa jur'ati yetmay, suyuqli qizini o'rmonda adashtirib keladi... (16, 27)

Aslida qizchanning ko'ngliga o'gay onaga nisbatan qo'rquv uyg'otgan uning Xolbuvi xolasi bo'ladi. Sen yetimchaga kun berishmaydi ular! Qizi dodingni beradi, enasi esa, og'zidan o't purkab, sen yetimchani tiriklayin qovurib yeydi! Ana shuni aytadilar-da, enali yetim — gul yetim, otali yetim — sho'r yetim deb! Sen manglayi qora, sho'r yetimsan-da! Shu sababli ham qizaloq o'zini ertak bosh qahramoni bo'lmish Zumradning o'rmda his qilib, dadasining qayta uylanmasligi, uyga Xolbuvi xolasining ta'biri bilan aytganda, yovuz o'gay onani olib kelmasligi uchun rosa harakat qiladi, uylarni tozalaydi, dadasining kiyimlari, boshqa kerakli buyumlarini qo'ldan kelganча becam-u ko'st tayyorlashga urinadi.

Ammo hikoya so'ngida Oydinning o'gay onasi — Sadoqat Xolbuvi xolasi aytgandek ham, o'zi tasavvur qilgandek ham bo'lmaydi. Sadoqat yangi kelgan kunni yozuvchi quyidagicha tariflaydi. ...hovli to'ridagi uy eshigiga yetib qolgan o'gay onaga ro'para qildi: "*Tanishing, qizingiz... Qizcha o'gay onaning kulib turgan ko'zlariga, xiyolgina qizil surilgan lablariga qo'rquv to'la ko'zlarini tikarkan, hozir bu pushtirang lablar orasidan o't sachraydi, deb o'yladi. Yo'q, qimirlagan lablar orasidan o't emas, quyidagi mayin xitob siring'alib chiqdi: — Voy, mening bolajonim!.. Qizcha, quloqlariga ishonmay, hang-mang turib qolarkan, zumda o'zini uning quchog'ida ko'rdi. U hali o'ziga butunlay yot bo'lgan bu quchoqda, odatda, xolasining hissiz bag'rida tuyadigan ter, chang va tutun isini emas, dimoqqa xush yoquvchi mayin atir bo'yini, chinakam mehr taftini his etdi*" (17, 25).

Shunday qilib, hikoyamizning o'ksik qalbli kichik qahramoni Oydin Sadoqat timsolida o'z onasini ko'rdi, undan o'z onasidan ko'rgan haqiqiy mehrni topdi. Oydin uni shunchalar yoqtirib qoldiki, shuning uchun ham kechani-kecha demay ertagini tezroq tugatib, onasiga surpriz qilmoqchi edi, hamda bu ertagi orqali qizaloq o'zining sevimli ertagi bo'lmish, "Zumrad va Qimmat" dagi singari barcha o'gay onalar ham yovuz, qo'pol va yolg'onchi bo'lmasligini, uning onasi esa eng mehribon va zukko ayol ekanligini isbotlashni istadi (18, 270).

Bugungi kundagi o'zbek nasrining yana bir o'tkir qalam sohibi bo'lmish, Hasan Manzur ham bu mavzuda "O'gay ona" nomli hikoya yozgan. Muallif o'z asarida o'gay ona xarakterini shunday ijobiy tasvirlaganki, beixtiyor yozuvchining mahorati kitobxonni o'ziga jalb etadi. Ahmad Lutfiy Qozonchi ham o'z asarlarida ona timsoliga ona tasviriga alohida etibor qaratgan yozuvchi hisoblanadi. Quyida yozuvchi tomonidan hikoya boshida o'gay onaning o'qishdan qaytgan farzandiga bo'lgan sog'inchi ifodalangan:

"Otasi vafotidan keyin poytaxtda o'qishini davom ettirayotgan Husan uch-to'rt oyda bir qishloqqa kelib, ayasidan xabar olar, har kelganda ayasini bir yumush ustida uchratardi.

Bu safar borganida ayasi eshik supurayotgan ekan. Ishga berilganidan uning qadam sasini ham eshitmadi.

— *Aya, men keldim...*

Ayasi qaddini ko'tardi, ko'ksiga tuflagan bo'ldi: Kapalagimni uchirib yubording, bolam, — dedi. Keyin bir zum, atigi bir zum u tarafga nazar tashlab turdi-da, qo'lidagi supurgisini uloqtirib, uni bag'riga oldi.

— *Nega hayallab ketding, bolam, onang emasman-da, onang bo'lganimda bunchalik yo'qolib ketmasding, — deya gina qildi (19, 20).*

Ayasi uni quchgancha turar, yelkalari silkinayotganidan unsiz yig'layotgani sezilardi. Husan ayasining oqarib ko'kintir tus olgan sochlarini siladi, yuziga sidirilib tushgan ro'molini peshonasiga tortdi.

— *Nega unday deysiz, men sizni onamdan yaxshi ko'raman. Ish, o'qish bilan vaqtim bo'lmadi.*

— *Otang o'lmaganida kunduzi o'qirding" (20, 51).*

Hikoyadan berilgan yuqoridagi parchada guvohi bo'lganimizdek, ayol o'z farzandi qarshisida turgandek, mehr bilan uni quchib, sog'inch ko'z yoshlarini to'kib, har qancha mehr bersa-da, haqiqiy onasi bo'lolmaganidan gina qiladi. Kitobxonga eng ta'sir qilgan jihati esa onaning o'gay farzandi uchun kuyinib, qalbdan o'ksinganidir.

Yana bir jumlada esa haqiqiy o'zbek ayolining bolajonlik mehri aks ettirilgan. Xalqimiz orasida ham "O'zbek millatidek bolajon xalq yo'q" singari hikmatli so'zlarni ko'p bora eshitganmiz. Chunki faqat onagina og'zidagi luqmasini farzandi bilan bo'lishmasdan yutolmaydi, faqat ugina o'zi och bo'lsa-da, borini farzandiga ilinadi.

"Dasturxonni yangilagani ayasi ichkariga kirib ketdi.

— *O'tirsangiz-chi, aya, sog'indim deysiz-u, kelsam oldimda tinch o'tirmaysiz.*

Ayasi qand-qursga qo'shib toza oq nafis dokaga o'ralgan go'sht to'rg'amlarini olib chiqdi.

— *Sensiz tomog'imdan o'tarmidi, bolam, go'sht pishirganimda nasibangni olib qo'rganman.*

Husan bo'g'ziga nimadir tiqilib yutindi.

U harbiyda yurgan kezlari ayasi har osh damlaganda nasiba deb bir kaft guruchni xaltaga solib qo'rgan, kelgan kuni o'shani o'ziga osh qilib yedirgan edi.

— *Ola qol, bolam, — qistadi ayasi, — oftobda qotirib, keyin muzdek joyda asraganman.*

Ayasi go'sht bo'laklarini taqsimchaga maydaladi.

— *Endi ikkimiz baham ko'ramiz" (21, 158).*

Shuningdek, faqat onagina farzandga nima yoqishini, uning ko'ngli nima xohlashini qalban his etadi, imkoni bo'lsa, dunyodagi barcha yaxshi narsalarni farzandi uchun so'raydi.

"Husan taqsimchani o'rta qo'ydi.

— *Hali ham achchiq choy ichasanmi? Sen ichadigan qilib damladim. Ona — bola choyxo'rlikka o'tirishdi".*

Ko'plab ertaklar va asarlardan o'qiganmizki, o'gay onalar o'zlari bilan tug'gan farzandlarini ham olib kelgan bo'lsalar, o'gay farzand uchun kamsitishlar, solishtirishlar, hamda o'gay farzandning ijobiy xarakterlari yashirilib, tanqid ostiga olinadi va doim ichki bir xudbinlik bilan o'z farzandarini birinchi qilishga, ular uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga

harakat qilishadi. Ammo hikoyamizda buning ham aksini ko'rishimiz mumkin.

— *Charchab qolyapsiz, aya, sizga qiyin bo'ldi.*

— *Meni qiynalmasin desang, uylan. Kelin oldimda bo'ladi.*

Husan pishitib kelgan fikrini o'rta tashladi:

— *Avval ukamni uylantiramiz.*

— *San jinni bo'libsan, — ayasining tusi o'zgardi. Xalq kuladi, o'gayligiga bordi, o'zinikini avval uylantirdi deydi.*

— *Xalq bizni boshimizni silab katta qilganingizni biladi. Ukamni qarz-qavolasiz uylantirsak, bas. Er-u xotin ishlasa, men uylanguncha o'zlarini tiklab oladi.*

Odatda, o'z onasidan ayrilgan farzand onasi o'rniga kelgan o'gay onani tan olishni istamaydi. Unga “ona” deb murojaat etish uyoqda tursin, uni hattoki otasining yonida ko'rishni, onasining buyumlaridan foydalanishini ham qabul qilolmaydi. Ammo hikoyamizda to'qqiz oyligida o'z onasidan judo bo'lib, peshonasiga yetim tamg'asi bosilgan qahramonimiz mehribon o'gay ona bag'rida ulg'aygani sababli, uning haqiqiy farzandi bo'lishni xohlaydi.

“Sukut ingan ko'chalar Husanga bolalik chog'larini eslatdi. U bolalikdan odamovi o'sgan, ko'pchilikka qo'shilmas, o'yingaroqlik ham qilmas, ayasidan ajramasdi.

Katta qishloqda uni tanimagan odam yo'q edi. To'y-to'ychiq, biron ma'rakadan kelayotgan ayollar hamisha uni o'rab olishar, Norbining o'g'li deb suyushar, cho'ntaklaridagi bor narsalarini qo'liga tutqazib ketishardi. Husan Norbining emas, ayasining o'g'li bo'lishni istar, yig'lamsirab uyiga qaytardi.

— *Aya, xotinlar meni Norbining o'g'li deyishyapti.*

— *Xotinlar bekor aytibdi. Sen mening o'g'limsan, seni daladan, yantoqning tagidan, quyonlarning yonidan topib olganman (5, 32).*

Uyga kirib ketgan ayasi kaftini qand-qurs bilan to'ldirib chiqib, do'ppisiga solardi.

— *Men senga ularnikidan yaxshirog'ini beraman. Kun issiq edi. Ko'cha oxiriga borgan Husan bir to'p ayolga duch keldi. Salom berdi. Ayollarning ulug'i oldinga chiqdi.*

— *Norbining o'g'limisan?*

— *Obdagulni.*

— *Obdagulniki hali yosh, Norbinikiga o'xshayapsan, qosh-ko'zlarining aytib turibdi, — ayol yonidagilariga o'girildi. — Buni onasi pinski domda tuqqan. Norbi rahmatli ikki beshikni ikki yoniga qo'yolib o'rikni soyasida alla aytardi. Biz Qo'shtepaning yonida chopiq qilamiz. Uning allasini eshitib yig'lamagan odam ham yig'lardi. Umri qisqa ekan-da, mana bolasi bo'y yetib uylanadigan bo'lib turibdi.*

— *Soch deganini ayting, — qo'shildi ikkinchi ayol. — Obdagul ham tuzuk, o'gayligini ham bildirmadi.*

— *Yetimlarning boshini silaganini xudoyim ham bildi, bitta bo'lsa ham o'g'il berdi, — davom etdi gap boshlagan ayol”.*

Dunyoning teskariligiga lol qolasan kishi! Bir oilada tug'ilib, voyaga yetgan farzandlarning tarbiyasi, dunyoqarashi va ota-onaga bo'lgan mehri turlicha bo'ladi. Ammo hikoyamizda kitobxonni hayratga soladigan narsa shuki, onaning o'z tug'gan bolasidan emas, o'gay farzandi tomonidan

ko'proq qadrlanishi, e'zolanishidir, Bu orqali biz doim salbiy obrazda ongimizda jonlangan o'gay ona o'zining mehridaryoligi sabab o'gay farzandining, o'z haqiqiy onasini ko'rmagan bolasining qalbida qay darajada joy olganini ko'rish mumkin.

“Ayasini uyga kuzatgan Husan ishxonasida qoldi. Oqshom uyga sarxush qaytdi. Ayasi o'choq boshida kuymalanar, negadir Husanga ro'baro' kelishdan qochardi. O'choq tomon borgan Husan ajabtovur holning ustidan chiqdi. Ayasining yuzi timdalangan, chuqur botgan tirnoq o'rnida qon qotib qolgandi.

— *Qaysi biri?! — qahr bilan so'radi u.*

— *O'tir, o'g'lim, mening o'g'lim bo'lsang, jim o'tir, — yig'lamsiradi ayasi.*

Ayasining gapi tugamasdan ostonada ukasining qorasi ko'rindi. Daladan endi qaytgan, hali etigini yechmagan ukasining fe'li aynigani yuzidan bilinib turardi.

— *Akamning xotinini ko'rgani boribsiz-ku, ona, o'lib-po'lib qolmadingizmi? — dedi u olayib. — Nima qilardingiz borib, xotinga meni tilimni qisib?*

— *Tilingni tiysang bo'lardi, — Husan uni murosaga boshladi.*

— *Siz aralashmang, men o'zimni tuqqan onam bilan gaplashayapman.*

— *Qizing eshigimda tug'ilganida o'la-o'la borardim, tug'ilganini bilmasam, daragini eshitmasam, nima deb boraman? — ayasi o'zini oqlashga tushdi.*

— *Ko'ru karmidingiz?*

— *Yo'qol! Bu yerdan qorangni o'chir!*

Husan g'azab bilan o'rnidan turdi-yu, ukasiga qaramay ko'ksini ushlaganicha kesilgan daraxtday yiqilayotgan ayasi tomon chopdi. Ayasining gap-so'zlarini yaxshi anglab bo'lmas, oyoq-qo'li izmiga bo'ysunmas edi. — Qimirlatmanglar, — maslahat berdi Husan olib kelgan doktor. — Bu yog'i endi Xudodan” (5, 14).

Inson 50 yoshini qoralagach, u uchun umr sarhisobi boshlanar ekan. Rost, u uchun hosil yig'ish davri, ya'nikim hayoti davomida o'stirgan nihollari, tarbiyalagan fazandlari meva bera boshlaydi, uning o'z hayotida qanchalik samarali yashagani farzandlariga bergan tarbiyasi orqali namoyon bo'ladi. To'g'ri barcha onalar ham o'z farzandlariga yaxshi tarbiya berib, komil shaxs bo'lishi uchun harakat qilishadi, ammo ayrim farzandlarning noqobil chiqishi juda achinarli. Hikoyamiz so'ngida ham o'gay akasining uzoq yillar davomida kutilgan farzandini ko'rishga tug'ruqxonaga borgan onaizorning o'z farzandi tomonidan ma'lomatga qoldirilishining guvohi bo'lamiz.

Shuningdek, ingliz nasrida ham bir qancha qalam sohiblarining “o'gay ona” mavzusida yozgan asarlarini tahlil qilar ekanmiz, boshqa millat vakillarida ona mehrining tugamasligi, hamda “Bolaning begonasi bo'lmaydi” naqli ostida ijobiy xislatlarga ega o'gay onalar madh etilgan ekan. Jumladan, Anne Renasinghening “The Stepmother” va “Pencil art story”ga mansub bo'lgan “Kind stepmother” hikoyalari ham o'ziga xosligi, mavzu xilma-xilligi, qahramonning ichki kechinmalari va ruhiyati, shuningdek asosiysi “o'gay ona” obrazining ijobiy ma'noda naqadar sabrli ona sifatida yoritilganligi bilan ajralib turadi. Anne Renasinghening “The

Stepmother” nomli hikoyasi ham o‘gay onaning begona uyga kelishi va xizmatkorlarga, uyga o‘zining yangi qarorlarini o‘tkazishi bilan boshlanadi. Yuqorida o‘gay onaning sabri haqida so‘z yuritilar ekan, Lakshman ismli hikoyamiz bosh qahramoni yangi tuflilar xohlashi, ammo o‘gay onasi u bilan birgalikda borsagina kiydirib ko‘rib olib berishini aytsa-da, bolakay garchand yangi tufli kiyib, o‘rtoqlariga maqtanish ishtiyoqi yuqori bo‘lsa-da, o‘gay onasi bilan borishni istamaganligi uchun rad etadi. Shuningdek, kichik chaqaloq uchun yasatilgan Javon Lakshman tomonidan atayin buzib, sindirilganini ko‘rsa-da, juda sabr bilan harakat qiladi:

“That was too much for Lakshman. After all his hard work... He jumped up from the floor, ran through the doors, and burst into her room without knocking. She was standing by the mirror examining her face, and his eyes met hers in the mirror.

He screamed, ‘You want to know who did it. Well, I did, I did it...’ His face was red under the brown skin, and his eyes very black, shining with the light of battle. His arms hung by his sides, his hands tightly closed.

She turned slowly. ‘You did it, Lakshman? You?’ She looked down at him from her great height. Her fingers were playing with the household keys she was holding. “That’s really too bad, Lakshman. Breaking the baby’s cupboard. We had to pay a lot of money for it”.

He almost laughed. The stupid woman! What was the point in breaking something cheap? He waited for her fury to break, preparing himself for the punishment, looking forward to it almost with pleasure.

But it didn’t come. She just stood there and looked at him calmly. Then she said, ‘That’s really too bad, Lakshman, I thought you were a sensible sort of boy.’ She sighed. ‘So now we have to ask the workman to repair the damage. Quite an unnecessary bother and cost.’ She walked towards the baby’s room.

Lakshman had a terrible feeling of disappointment, worse than he had ever experienced before. Wildly he ran after her and asked urgently, ‘But aren’t you going to punish me?’

‘Punish you?’ She appeared surprised. ‘Punish you? Oh, no. There’s no point in that. Because that’s what you want, isn’t it?’ She looked him straight in the eye. ‘No, Lakshman. I am not going to punish you. Only...’ She hesitated for a moment. ‘About the repairs. You are going to pay for them, Lakshman. Out of your bicycle money. That’s fair, don’t you think?’ (3, 200).

Ayol shunchalik sabr, mehr bilan bu fojining yechimini topadiki, bolaning qalbiga ozor bermasdan, qilgan ishining xatoligini va har bir inson o‘z qilgan ishi uchun o‘zi javob berishi lozimligini singdiradi va birgalikda bu muammoning yechimini topishadi.

“She said, ‘Lakshman?’ Pause. ‘Lakshman — we can come to an arrangement.’

He did not look up. But there was no longer any sharpness in her voice; instead, there was a warm note in it that the child did not fail to notice.

She said, ‘You help the workman repair the cupboard, and I’ll pay half the cost. Agreed?’

His eyes were hot with tears. 'The bloody woman,' he whispered to himself. 'The bloody, bloody woman...' But he slowed down, and as he reached the bottom of the stairs, she heard him begin to whistle.

'Agreed,' he shouted, and ran quickly out of sight" (Anne Ranasinghe "The stepmother" (3, 232)

"Pencil art story"ga mansub bo'lgan "Kind stepmother" hikoyasida esa o'gay onaning yurakdan ko'rsatilgan mehri-muhabbati, hamda betob farzandning tuzalishi uchun o'z onasidek qayg'urishlari va uni parvarishlashi oqibatida bolaning tuzalishi va mehrini qozonganini guvohi bo'lishimiz mumkin. (Pencil art story "Kind stepmother")

Charles Dickensning "Great Expectations" asarida Mrs. Joe Gargery obrazi o'gay ona sifatida tasvirlangan. U Pipning katta opasi bo'lib, uni va erini tarbiya qiladi. Mrs. Joe qattiqqo'l va talabchan xarakterga ega, Pipga nisbatan esa juda qattiqqo'l va nohaq. Dickens Mrs. Joe obrazini juda qattiqqo'l va talabchan qilib tasvirlaydi. Uning o'gay onalik roli qiyin va azobli ko'rinadi, chunki u Pipni doimiy ravishda tanqid qiladi va unga jazo beradi. Bu obraz orqali Dickens Viktoriya davridagi o'gay onalarning hayotidagi qiyinchiliklarni va oiladagi muammolarni ko'rsatadi. Mrs. Joe obrazi orqali Dickens Viktoriya davridagi o'gay onalarning ijtimoiy mavqeyini va ularning oilaviy muhitdagi rolini ochib beradi. Ushbu obraz ijtimoiy adolatsizlik va oiladagi qattiqqo'llikni tanqid qilish uchun ishlatiladi.

Mrs. Joe obrazining ichki dunyosi juda murakkab. U o'z hayotidan norozilik his qiladigan, lekin o'z his-tuyg'ularini qattiqqo'l va talabchan harakatlari orqali ifodalaydigan shaxsdir. Bu obraz orqali Dickens inson ruhining murakkabligini va oilaviy hayotdagi ziddiyatlarni ko'rsatadi.

Abdulla Qahhorning "O'gay ona" asarida o'gay ona obrazi ko'proq mehribon va muruvvatli sifatlarda tasvirlangan. Ushbu obraz orqali Abdulla Qahhor o'zbek jamiyatidagi o'gay onalarning o'rnini va ularning oilaviy munosabatlardagi rolini ko'rsatadi. Qahhorning asarida o'gay ona juda mehribon va himmatli qilib tasvirlangan. U o'z o'gay bolalariga mehr ko'rsatadi va ularni o'z bolalaridek tarbiya qiladi. Bu obraz orqali Qahhor o'zbek oilalaridagi mehr-oqibat va oilaviy qadriyatlarini ko'rsatadi, o'zbek jamiyatidagi o'gay onalarning ijtimoiy mavqeyini va ularning oilaviy hayotdagi rolini ochib beradi. O'gay onaning mehribonligi va himmatliligi orqali adib jamiyatdagi ijtimoiy adolat va oilaviy hamjihatlikni ta'kidlaydi. O'gay ona obrazining ichki dunyosi mehr-oqibat va himmat bilan to'la. U o'zining shaxsiy hissiyotlarini bolalariga nisbatan mehr ko'rsatish orqali ifodalaydi (8, 25).

Charles Dickensning Mrs. Joe va Abdulla Qahhorning o'gay ona obrazlari bir-biridan keskin farq qiladi. Dickensning asarida o'gay ona qattiqqo'l va nohaq sifatlarda tasvirlansa, Qahhorning asarida o'gay ona mehribon va muruvvatli sifatlarda tasvirlangan. Ushbu farqlar har ikki millatning tarixi, madaniyati va ijtimoiy strukturasi bilan bog'liqdir. Dickens Viktoriya davridagi ijtimoiy adolatsizlik va oilaviy muammolarni ko'rsatsa, Qahhor o'zbek oilalaridagi mehr-oqibat va ijtimoiy adolatni tasvirlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz va o'zbek nasri hamisha o'zining g'oyaviy mazmunining teranligi, hayot mazmun-mohiyati masalalarini hal etishga tinimsiz intilishi, insonparvarlik munosabatlari, tasvirlashning haqqoniyliги bilan ajralib turadi. Yuqorida tahlil etilgan ingliz va o'zbek yozuvchilari o'gay ona obrazlarida eng yaxshi xususiyatlarni ifodalashga intilishgan. O'zining sodiq va mehribon qalbi, betakror ma'naviy go'zalligi bilan ajralib turadigan ayol obrazlari jahon badiiy adabiyotida turlicha tasvirlangan. Hikoyalarimizdagi o'gay ona obrazlarining oilaparvarligi, mehribon ona kabi xislatlari juda mahorat bilan teran yoritilgan. Mustaqillik davri o'zbek qissanavislari badiiy, adabiy ijodiy tajribalarini to'plashda milliy qissachilikdan tashqari, dunyo qissachiligi tajribalarini o'zlashtirdi va milliy islomiy badiiy talqinlarga yuz burganini ko'rsatdi. Adabiyotning bosh qahramoni, bosh mavzusi ayoldir. To'g'ri, adabiyotlarda ota-onaga muhabbat, tabiat go'zalligi, insof, farzand muhabbati, dushmanga nafrat kabi abadiy mavzular mavjud bo'lib, ularning har biri turli xalqlar adabiyotida tarannum etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Lutfiy Qozonchi. O'gay ona. — T.: Yangi asr avlodi, 2018. — 392 b.
2. Alcantud Díaz María. Deconstructing Stereotypes Through Reading Children's Literature as Intergenerational Play: The Case of the Stepmother. In *Children's Literature and Intergenerational Relationships: Encounters of the Playful Kind*, Cham: Springer International Publishing, 2021. — P. 211–223.
3. Ranasinghe Anne. "The stepmother" story. — URL: <https://megawp.ru/articles/62-the-stepmother-anne-ranasinghe.html>
4. Eshmatova Y.B. Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. Fil. fan. nomz...diss. — Toshkent, 2020. — 167 b.
5. Hasan Manzur. "O'gay ona" nomli hikoyasi. — URL: <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1303-%D1%9E%D0%B3%D0%B0%D0%B9-%D0%BE%D0%BD%D0%B0-%D2%B3%D0%B8%D0%BA%D0%BE%D1%8F-hasan-manzur.html>
6. Ika M., Aditya P. Representation of Women Image in Anthology of Poetry "Poetry of Rahim" by the Women Poet of five Countries. // *O'zbekistonda xorijiy tillar*, 2022, № 3 (44). — P. 155–166.
7. Imomov K. O'gay qiz tipidagi turkum ertaklarning ayrim xususiyatlari. // *O'zbek tili va adabiyoti*. — 2001. — № 3. — B. 78–86.
8. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2005. — 228 b.
9. Jalolova F.N. "O'gay ona" konseptining lingvomadaniy talqini (ingliz va o'zbek xalq ertaklari misolida). Avtoreferat. — Toshkent, 2023. — 28 b.
10. Kaipbergenova D.O. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida "stepmother/o'gay ona" konseptining farqli jihatlari.// *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2023. — B. 261-266. www.oriens.uz

11. Norqobilov Normurod. Yangi ertak// Ijod olami, 2017. — 1-son. — URL: <https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/normurod-norqobilov/normurod-norqobilov-yangi-ertak-hikoya/>
12. Pencil Art Story “Kind stepmother” story. — URL: <https://steemit.com/hive-185836/@sultan-aceh/pencil-art-story-kind-stepmother>
13. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — T.: O‘qituvchi, 2004. — 242 b.
14. Raximov M. The image of women in the work of Uzbek writers // Euroasian Research Bulletin. Volume 3, 2021. — P. 11-17. — URL: <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/260>
15. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: pedagogika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. — T.: Musiqqa, 2010. — 368 b.
16. Sattorova G.Y. Bugungi hikoyalarda ayol obrazi talqini // Scientific work (international scientific journal), 2020. No. 08/57. — P. 29–32. DOI: 10.36719/AEM/2007-2020/57/29-32
17. Shermurotov T. Mangu onaizor talqini. Yetuklik jozibasi. — Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. — 144 b.
18. Umarova F.B. Ingliz va o‘zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No. 3 (44). — P. 155-166. — URL: <https://journal.fledu.uz/ru/obraz-zhenshhiny-v-anglijskoj-i-uzbekskoj-proze/> ISSN: 2181-8215
19. Charles Dickens “Great Expectations” title page of vol. I of first edition, July 1861. — URL: https://books.google.co.uz/books/about/Great_Expectations.html?id=fhUXAAAAYAAJ&source=sh/x/srp/wr/m1/5&redir_esc=y
20. Wittmann Gerda-Elisabeth. When love shows itself as cruelty: the role of the fairy tale stepmother in the development of the under-aged reader. Mousaion 29, no. 3, 2011. — P. 1-11.
21. Yozdonqulova O.Z. Ingliz va o‘zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri // Academic Research in Educational Sciences, 2023. 4(12). — B. 65–72. — URL: https://t.me/ares_uz
22. Ларин Б.А. О лирике как разновидности художественной речи. — Ленинград: Academia, 1927. — С. 42–73.
23. Мышкина А.Ф., Ядранская И.В. Эстетическое и этическое значение художественного произведения в образовательной среде. Развитие образования. №5(3), 2022. — P. 32–37.
24. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. — М., 1976. — 192 с.

References

1. Ahmad Lutfiy Qozonchi. *O‘gay ona* (Stepmother), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2018, 392 p.
2. Alcantud Díaz María. Deconstructing Stereotypes Through Reading Children’s Literature as Intergenerational Play: The Case of the Stepmother. In *Children’s Literature and Intergenerational Relationships:*

- Encounters of the Playful Kind, Cham: Springer International Publishing, 2021, pp. 211–223.
3. Ranasinghe Anne, “The stepmother” story, available at: <https://megawp.ru/articles/62-the-stepmother-anne-ranasinghe.html>
 4. Eshmatova Y.B. *Istiqlol davri uzbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini* (Artistic interpretation of the female psyche in Uzbek narrative of the independence period), Extended abstract of candidate’s thesis, Tashkent, 2020, 167 b.
 5. Hasan M. *Ugay ona nomli hikoyasi* (Stepmother title story), available at: <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1303-%D1%9E%D0%B3%D0%B0%D0%B9-%D0%BE%D0%BD%D0%B0-%D2%B3%D0%B8%D0%BA%D0%BE%D1%8F-hasan-manzur.html>
 6. Ika M., Aditya P. *Uzbekistonda xorijiy tillar*, 2022, No 3 (44). pp. 155–166.
 7. Imomov K., *Uzbek tili va adabiyoti* 2001, No 3, pp. 78–86.
 8. Izzat Sulton. *Adabiyot nazariyasi* (Theory of literature), Tashkent: Uqituvchi, 2005, 228 p.
 9. Jalolova F.N., *Ugay ona konseptining lingvomadaniy talqini* (Linguistic interpretation of the concept stepmother), Doctor’s thesis, Tashkent, 2023, 28 p.
 10. Kaipbergenova D.O. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, (E)ISSN:2181-1784, 2023, pp. 261-266, available at: www.oriens.uz
 11. Normurod Norqobilov. *Ijod olami*, 2017, No 1, available at: <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/normurod-norqobilov/normurod-norqobilov-yangi-ertak-hikoya/>
 12. *Pencil Art Story Kind stepmother story* (Internet source), available at: <https://steemit.com/hive-185836/@sultan-aceh/pencil-art-story-kind-stepmother>
 13. Kuronov D., *Adabiyotshunoslikka kirish* (Introduction to literary studies), Tashkent: Ukituvchi, 2004, 242 p.
 14. Raximov M., *Euroasian Research Bulletin*. Volume 3, 2021, pp. 11–17, available at: <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/260>
 15. Safarov O., *Uzbek xalq ogzaki ijodi: pedagogika oliy uquv yurtlari uchun darslik* (Uzbek folk oral creativity: textbook for pedagogical higher educational institutions), Tashkent: Musiqa, 2010, 368 p.
 16. Sattorova G.Y. *Scientific work* (international scientific journal), 2020, No 08/57. pp. 29–32. DOI: [10.36719/AEM/2007-2020/57/29-32](https://doi.org/10.36719/AEM/2007-2020/57/29-32)
 17. Shermurotov T., *Mangu onaizor talqini. Yetuklik jozibasi* (Interpretation of the eternal mother. The charm of maturity), Tashkent: Turon zamin ziyo, 2017, 144 p.
 18. Umarova F.B. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 2022, No. 3 (44). pp. 155–166, available at: <https://journal.fledu.uz/ru/obraz-zhenshhiny-v-anglijskoj-i-uzbekskej-proze/>
 19. Charles Dickens “*Great Expectations*” title page of vol. I of first edition, July 1861, available at: https://books.google.co.uz/books/about/Great_Expectations.html?id=fhUXAAAAYAAJ&source=sh/x/srp/wr/m1/5&redir_esc=y

20. Wittmann Gerda-Elisabeth. *When love shows itself as cruelty: the role of the fairy tale stepmother in the development of the under-aged reader*. Mousaion 29, No. 3, 2011, pp. 1-11.
21. Yozdonqulova O.Z. Academic Research in Educational Sciences, 2023. 4(12), pp. 65–72, available at: https://t.me/ares_uz
22. Larin B.A. *O lirike kak raznovidnosti khudozhestvennoi rechi* (About lyrics as a kind of artistic speech), Leningrad: Academia, 1927, pp. 42–73.
23. Myshkina A.F., *Razvitie obrazovaniya*, 2022, No. 5(3), pp. 32–37.
24. Timofeev L.I., *Osnovy teorii literatury* (Fundamentals of literary theory), Moscow, 1976, 192 p.